

O'QUVCHILARNING HAYOTIDA MUSIQANING O'RNI

РОЛЬ МУЗЫКИ В ЖИЗНИ УЧАЩИХСЯ

THE ROLE OF MUSIC IN THE LIFE OF READERS

Ismailova Sevinch Ilhomjon qizi

Musiqa ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Nuraliyeva Zuhra

Guliston Davlat Pedagogika instituti o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barcha maktab o'quvchilarining milliy musiqqa, milliy kuy va milliy raqslarga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va yanada oshirish, milliylik ruhida tarbiya olishi va bahramand bo'lishi, milliy kuy va qo'shiqlarni eshitish orqali zavqlanishi hamda milliy g'urur, faxr tuyg'ularini rivojlanirish va boshqa insoniy fazilatlarini his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqqa san'atining ahamiyati qanchalik kata ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: estetik did, milliy g'urur, faxr, milliy kuylar, qo'shiqlar, raqslar, musiqiy ertaklar, laparlar, tarbiya.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о том, насколько велико значение музыкального искусства в воспитании и дальнейшем повышении интереса всех школьников к национальной музыке, национальным мелодиям и национальным танцам, воспитании и наслаждении в духе национальности, получении удовольствия от прослушивания национальных мелодий и песен, а также в развитии чувства национальной гордости, гордости и других человеческих качеств.

Ключевые слова: эстетический вкус, национальная гордость, гордость, народные мелодии, песни, танцы, музыкальные сказки, лапары, воспитание.

Abstract: This article talks about how kata music art is important to arouse and further interest of all schoolchildren in National Music, national singing and national dances, to be brought up and enjoyed in the spirit of nationalism, to enjoy national singing and singing through hearing, and to develop national pride, feelings of pride and other human phasias.

Key words: aesthetic taste, national pride, pride, national melodies, songs, dances, musical fairy tales, lapars, upbringing.

KIRISH

Yosh kelajak avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqqa ta'limining ahamiyati

beqiyosdir. Yosh avlodni tarbiyalashda bunda o'zbek musiqa san'atining ahamiyati hamda imkoniyatlari keng va ko'proqdir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida navqiron yosh kelajak avlod tarbiyasi haqida so'z yuritarkan "Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda" deb ta'kidlagan edi. Shuningdek, yosh kelajak avlodlarga komil inson bo'lib yetishishi uchun musiqaning o'rnini ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1996-yil 31-dekabrda "Respublikada musiqiy ta'limni rivojlantirish, madaniyat va san'at o'quv muassasalarining ish samaradorligini oshirish haqida" gi hamda 2008-yil, 28- iyuldagi "Bolalar maktablarining musiqaviy moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning ish faoliyatlari samaradorligini oshirish bo'yicha. 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi haqida" gi farmonlariga asosan har yili musiqa maktablari, madaniyat va san'at muassasalari ko'plab musiqa asboblari hamda boshqa texnik vositalar bilan davlat tomonidan ta'minlanishiga e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 2-fevral kundagi PQ-112 "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori, shuningdek yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda belgilangan "Ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish" mezonlarini hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarda milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishda mavjud muammolarni bartaraf etish milliy musiqa merosimizni asrab avaylagan holda kelajak avlodlarga yetkazish bilan bir qatorda jahon ta'limi taraqqiyotining yutuqlaridan ham maqsadli foydalana olish va ilg'or tajribalarni milliy qadriyatlarimiz va qarashlarimizga moslashtirish orqali ta'limning yuqori pog'onalariga ko'tarishni maqsad qiladi.

Prezidentimiz milliy musiqani tiklab uni rivojlantirish maqsadida ko'p islohotlar hamdasha-sharoitlar yaratib bermoqda. Biz esa bunday imkoniyatlardan oqilona, samarali, unumli foydalana olishimiz kerak. Hozirgi kunda milliy musiqa juda ham kamayib bormoqda uni tiklash uchun milliy musiqalarni, kuylarni, qo'shiqlarni, raqslarni yosh kelajak avlodlarning ruhiga olib kirishimiz va uni davom ettirishlari uchun harakat qilmog'imiz darkor.

MUHOKAMA

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan kelajak avlod istiqboli yo'lida milliy madaniyatimiz va san'atimizni har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshlab bergan bu yo'l hozirgi kunda Shavkat Mirziyoyev tomonidan yuksak

cho'qqilarga olib chiqmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimida "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning eng asosiy sifat bosqichida belgilangan vazialarni ro'yobga chiqarish bo'yicha chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'quvchilarning milliy musiqa san'atiga qo'shiq kuylash, raqsga tushish orqali olib kirish, musiqiy estetik tarbiyasining yangi yo'llarini izlash, uni nazariy jihatdan asoslab berish, musiqiy pedagogikaning doimo diqqat markazida bo'lgan muammolari bo'lib hisoblanib kelmoqda. Qo'shiqning ifodasi, ijrosi bolalarning hissiy ta'sirchanligini o'stirib, musiqiy obrazlarni yanada chuqurroq tushunishlariga, ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishda yordam beradi. Qo'shiq kuylash tufayli bolalarda metodik garmonik, eshituv musiqiy xotira, so'z boyligi ortadi hamda matnining badiiy mazmunini tushunish kabi qobiliyatlari shakllanib, rivojlanib boradi va kuylash apparati mustahkamlanadi. Qon aylanish sistemasi yaxshilanadi hamda o'pkadan to'g'ri nafas olishni o'rgana boshlaydi. Bolalarda o'zbekona milliy g'ururni ma'naviy ongni yuksaltirish, uning milliy an'analarimizga, tilimiz va madaniyatimizga muhabbat va hurmat ruxida tarbiyalashga, tarbiya muammolarini to'la hal qilish pedagoglar oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tarbiya-xususan milliy tarbiya, davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbek xalqining tarixiga nazar tashlansa, bir umr tarbiya muammosini hal qilish asosiy o'rinni egallagan. Mashxur Yusuf Xos Hojib, Al-Beruniy, Al-Farobiy singari olimu - shoirlarimiz o'z asarlarida ham tarbiya masalasifa alohida e'tirof etishgan. Har bir tarixiy davrda, qanday jamiyatda tarbiyaning zarurligi dolzarb bo'lib kelgan. Odam tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha tarbiyalanadi, tarbiya oladi. Demak, inson kelajagi, hayot va turmushi, ko'pincha tarbiya bilan bog'liq. Shunday ekan inson tarbiyasi u chaqoloqlikidan boshlanadi. U bolaligida qanday tarbiyalangan bo'lsa, uning xulq-atvori, axloq odobi shunga qarab shakllanadi. Shuning uchun bizning jamiyatimizda bola tarbiyasiga asosiy diqqat- e'tibor qaratilgan. Tarbiya juda ko'p narsani hal qiladi. Tarbiya-erkin fuqorolik jamiyatning ma'naviy barkamol, e'tiqodini butun, axloqiy pok, odobli avlod yetishib chiqishiga yordam beradigan insoniy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va uning kelajagi asosini bola tarbiyasi tashkil qiladi hamda jamiyat ravnaqi bilan bola tarbiyasi shakllanib va rivojlanib boradi. Tarbiya texnologiyasi va uning tarkibiy qismlarini O'.Q.Tolipov va M.Usmonboevalar quyidagicha belgilaydilar: 1) tarbiya jarayonining umumiy loyihasi; 2) tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat); 3) tarbiya maqsadi; 4) tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar); 5) o'qituvchi (tarbiyachi) faoliyati; 6) o'quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati; 7) tarbiya samarasi (natija). Demak, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish aniq maqsadga va ijtimoiy g'oyaga asoslangan hamda o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishidir. Milliy

ruhiyatni tarbiyalashda hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda tarbiyaviy ishlar mazmuni quyidagicha hal etishni takozo etadi: 1) yosh avlodni hayotga tayyorlashda, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, hayotga maqsadli yondashuv, bu borada rejalari bilan amaliy hayot birligi hissini uyg'otish orqali milliy ruhni tarbiyalash; 2) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglash, bilim va tafakkurga ega bo'lish, ongini boyitib borish orqali milliy ruhni shakllantirish; 3) asosiy axloq me'yorlari (insoniylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatparvarlik, axloqsizliklikka nafrat) orqali milliy ruhiyatning mohiyatini anglash, muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirish; 4) o'quvchilarda huquqiy va axloq me'yorlariga hurmat bilan yondashish amalga oshiriladi. A.Avloniy shunday degan edilar "Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi". "Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot-yo halokat. Yo saodat-yo falokat masalasidir" deb yozgan edi.

Asosan 30-40-yillarda ilk bor bolalar musiqasini to'plash va yaratish uchun Y.E.Ramonovskiy, I. Akbarov, Y.Rajabiy kabi ko'plab kompozitor va bastakorlar kirishdilar. Y.E.Ramonovskiyning O'zbek xalq qo'shiqlari, folklor asarlarini to'plab 1936-yili "30 ashula" nomli to'plami nashr etildi. 1942-yili B.Nadejdinning "Yosh bolalar", Shu yili Ilyos.Akbarov tomonidan "Bolalar ashulasi" kabi to'plamlar nashr qildilar. Yosh kelajak avlodlarga milliy xalq musiqalari bilan tanishtirilib, ularni qayta ishlab milliy musiqa va folklorga qiziqishlari uyg'ona boshlandi. O'zbek xalq musiqalari qayta ishlanib pyessalar yaratildi. Masalan: "Dilbar", "Chamanda gul" va boshqalar. Tadbirlarning shakllariga folklor ansambllari, turli mavzularda o'tkaziladigan kechalar, turli tanlovlar, badiiy kompozitsiyalar, teatrlashtirilgan konsertlar, ommaviy bayramlar, o'zbek xalqining an'anaviy bayramlari (gul bayramlari, qum sayli, sumbula sayli, lola sayli, qovun sayli, hosil bayrami va boshqalar) va nihoyat, eng ulug' va aziz bayramlar «Mustaqillik kuni» hamda «Navro'z» bayramlari musiqasiz kuy-qo'shiqlarsiz o'tmaydi va milliy ruhni tarbiyalashda eng samarali natijalarga erishishda muhim ahamiyat o'rin tutadi. Turli sayllar, Navro'z bayrami va boshqa tadbirlarda ishtirok eta boshlaydilar. O'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalashda ayniqsa, «Navro'z» bayramiga tayyorgarlik va uni o'tkazish faqat tajriba-sinov maktablaridagina emas, barcha umumta'lim maktablarida qiziqish va tantanavor ruh kasb etadi. Ma'lumki, «Navro'z» o'zbek xalqining eng ezgu an'anasiga kiradi. An'analar urf-odatlar, rasm-rusumlar insoniyatning tarixiy taraqqiyotida muhim o'ringa ega. An'analar mazmuni har bir millatning, xalqning, elatning mentalitetini aks ettiradi. Ezgulik, insonparvarlik, yaxshilikka yo'naltirilgan bu an'analar jamiyatning o'zgarishi va davr talabi bilan o'zgarib boradi. Yosh avlod o'zining bugungi yurt vorisi ekanligini tushunishi, xalqimiz erishgan ulkan yutuqlarni

o'quvchilarga musiqa orqali etkazilishi o'quvchilar xotirasida buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish va kelajagi buyuk yurtga munosib farzand bo'lish tuyg'usini shakllantirishga yordam berdi. Natijada musiqa asarlari o'quvchilar qalbida ona-Vatanga muhabbat, xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini mustahkamladi va buyuk yaratuvchilik ishida faol ishtirok etishga yo'lladi.

Prezidentimiz qarori biz, san'at ahli yuragiga yoqimli bir navoday singib, ko'nglimizga xushnudlik, sohamizga yanada muhabbat bilan yondashib xizmat qilishni va kelajak avlod qalbiga kuy va qo'shiq sehri bilan eng go'zal xislatlarni singdirib borishimizda muhim va nurli bir dovondir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda milliy ruhni tarbiyalashda ta'lim jarayoni bilan birga tarbiyaviy ishlar jarayoni ham katta kuchga ega bo'lib, tarbiyaviy ishlar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda uning turli shakllaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bitta yosh kelajak avlodni milliy ruhda tarbiya qilish lozim. O'zbek milliy qo'shiqlari, raqslari hamda kuylarini yosh avlodlarga o'rgatib uni yanada avloddan avlodga meros qilib qoldirishimiz lozim. Chunki bizning yodgorlik merosimiz hisoblanadi. Musiqa hech kimga yomonlik olib kelmaydi, aksincha yaxshilik olib keladi. Bolalarning yoshligidan boshlab tarbiya qilib so'ngra milliy ruhda tarbiyaanishi kerak. Keyinchalik kelajakda yurtimizga hissa qo'shadiganlar safida bo'lishi mumkin. Bozga meros bo'lib kelgan milliy urf odatlarimiz, an'analarmizni saqlashimiz hamda ularni yosh kelajak avlodlarga o'rgatishimiz kerak. Bu meros ota bobolarimizdan, buvilarimizdan meros bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187 – sonli qarori . (Musiqa madaniyati fanidan Davlat ta'lim standart) . 2017-yil 6-aprel
2. Ma'lumotlardan foydalanilgan www.president.uz .
3. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2017.
4. Tursunov R. "Xalq musiqa ijodiyoti va amaliyoti". Toshkent. "Ma'rifatmadadkor" nashriyoti. 2002 yil.
5. Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'povozli kuylash. Toshkent. "O'qituvchi" 1997 yil
6. A.Yuldashev "TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUN", " KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI"VA MUSIQIY TA'LIM TIZIMIDA UZLUKSIZLIK VA UZVIYLIKNI AHAMIYATI. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. Февраль 2021. г.Повлодар

7. U.Boltaboeva, Sahna nutqi. O'quv qo'llanma. -T., 2019.
8. O.Fayzieva boshqalar.«O'zbekistan maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish buyicha metodik qo'llanma». - T.: «Navoiy azot» nashriyoti, 1992 y.
9. G.M.Sharipova. «Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish uchun metodik qo'llanma». -T .: RTM nashriyoti, 2001 yil